

“SHAROF BOSHBEKOV ASARLARIDA DETALLARNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI”

Jozilova Mohigul Orif qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Buriyeva Firuza

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharof Boshbekov dramaturgiyasi va nasriy asarlarida qo‘llanilgan badiiy detallarning estetik vazifasi tadqiq etiladi. Adib asarlaridagi buyum, portret, peyzaj va nutqiy detallar obraz xarakterini ochish, muallif g‘oyasini ifodalash hamda asarning emotsional ta’sir kuchini oshirishdagi o‘rni nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, “Temir xotin”, “Falakning gardishi” asarlaridagi detallarning badiiy funksiyasi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy detal, estetik funksiya, dramaturgiya, obraz, ramziylik, individual uslub, badiiy mahorat.

Аннотация. В данной статье исследуются эстетические функции художественных деталей в драматургических и прозаических произведениях Шарофа Бошбекова. Анализируются предметные, портретные, пейзажные и речевые детали, раскрывающие характер персонажей, авторскую идею и усиливающие художественное воздействие произведения. Особое внимание уделяется семантической нагрузке деталей в произведениях «Темир хотин» и «Фалакнинг гардиши».

Ключевые слова: художественная деталь, эстетическая функция, драматургия, образ, символизм, индивидуальный стиль, художественное мастерство.

Abstract. This article examines the aesthetic functions of artistic details in the dramatic and prose works of Sharof Boshbekov. Particular attention is paid to object, portrait, landscape, and speech details that reveal character traits, express the author's ideas, and enhance the emotional impact of literary texts. The semantic significance and artistic role of details in “Temir xotin” and “Falakning gardishi” are analyzed from a scholarly perspective.

Keywords: artistic detail, aesthetic function, dramaturgy, character, symbolism, individual style, artistic mastery.

Adabiyot jamiyatdan oziqlanadigan va ayni paytda jamiyatning ma’naviy qiyofasini shakllantiradigan noyob hodisadir. Go‘yoki jamiyat bir inson tanasi, adabiyot esa uning qalbi va ruhidir. Qalb sog‘lom bo‘lmasa, tananing barkamol bo‘lishi qiyin bo‘lgani kabi, adabiyotsiz jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ham tasavvur etish

mushkul. Aynan shu ma'naviy ta'sirni kuchaytirishda ijodkorlar badiiy ifoda vositalariga, xususan, detallarga murojaat etadilar. Chunki detal katta hayot haqiqatini kichik, ammo ta'sirchan tasvir orqali ochib beruvchi badiiy unsurdir. Jamiyatlardagi murakkab ijtimoiy holatlar yoki inson ruhiyatidagi nozik o'zgarishlar ko'pincha aynan kichik bir detal orqali yaqqol namoyon bo'ladi.

“Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda asar g'oyasini ifodalashda, uning emotsional ta'sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta rol o'ynaydi”¹. Darhaqiqat, adabiyotda katta g'oyani ham ko'pincha kichik, aniq va sezilarli belgilar orqali jonlantirish kerak bo'ladi. O'quvchi umumiy gapdan ko'ra, ko'z oldida gavdalanadigan kichik tasvirni tezroq qabul qiladi va his etadi. Shuningdek, detal obrazni jonlantiradi, asarning ishonarliligini oshiradi, ramziy ma'no yuklaydi. Ushbu maqolada badiiy detalning estetik va g'oyaviy funksiyalari Sharof Boshbekov ijodi misolida tahlil qilish orqali yanada chuqurroq yoritib berilgan.

Sharof Boshbekon nomi tilga olinganda tabiiy ravishda “Temir xotin” tragikomediya ham yodga tushadi. Shunday ekan, tahlilni ham aynan shu asardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Asarning kirish qismiga nazar tashlar ekanmiz,

“Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli. To'g'rida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastakkina ko'cha eshigi, oldinroqda yog'och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo'yalgan, yarmining rangi o'chib ketgan; yog'och karavotning bitta oyog'i yo'q, o'rniga g'isht terib qo'yilgan; ko'rpa-yostiqa yamoq tushgan; piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo'mragiga tunuka kiygizilgan va hokazo...”²

Avvaliga hammasi sokin va tabiiydek tuyuladi: ustunli peshayvon, kichkina ko'cha eshigi, oldinda yog'och karavot... Ammo diqqat bilan qaralganda, bu manzarada yashiringan og'ir haqiqat asta-sekin ochila boshlaydi. Har bir buyum, har bir jihoz go'yo o'z dardini so'zlamogda. Eshik va derazalarning yarmi bo'yalgan-u, yarmi rangsiz qolgan – bu faqat beparvolik emas, balki imkonning yetmasligi, ishning oxiriga yetolmaslik iztirobi. Yog'och karavotning singan oyog'i o'rniga qo'yilgan g'isht esa bu xonadon egalarining qanday qilib boriga chidayotganini, yo'qni bor qilib yashayotganini ko'rsatadi. Yamoq tushgan ko'rpa-yostiqlar, cheti uchgan piyolalar, tunuka bilan “davolangan” choynak – bularning barchasi bu hovlida yashayotgan insonlarning hayoti oson emasligini aytib turibdi. Shu bilan birga, ushbu detallar faqat tashqi kambag'allikni emas, balki inson qalbidagi ichki kemptiklikni ham ochib beradi. Ya'ni tashqi muhitdagi “yamoq”, “singan”, “o'chgan” unsurlar qahramonlar ruhiy olamidagi to'liq bo'lmaganlik, qoniqmaslik va ma'naviy bo'shliq bilan uyg'unlashadi. Natijada buyumlar holati inson ichki dunyosining ramziy ko'zgusiga aylanadi.

¹ T.Boboiev. Adabiyotshunoslik asoslari. -T: “O'zbekiston”. 2002. B 74

² “Temir xotin” / jiddiy komediya / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi -T.: “Oltin Qalam”, 2024.- 128 b.

Detal deyilganda ko'pchilik faqatgina moddiy jismlarni ko'z oldiga keltiradi, vaholanki, uni bunday tushunish juda soddallashtirib yuboradi. Qahramonning ichki holatini ifodalovchi kichik belgilar: bir qarash, sukut, qo'l harakati, to'satdan o'zgaruvchi kayfiyatlar ham detal hisoblanadi, chunki ular katta ruhiy holatni "kichik ishora" orqali ochadi. Eng asosiylaridan biri esa nutqiy detallar bo'lib, qahramonning gapirish uslubi, tanlagan so'zlari, takrorlar, pauzalar – barchasi obrazning holatini, hissiyotini anchayin yuqori darajada ko'rsatadi. So'z isboti o'laroq quyidagi parchalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir:

"Iye, jinnimisan, vey? Ozgina sho'xlik qilsak, qilibmiz endi. Yigitchilikda nimalar bo'lmaydi...";

"Bu sho'xliklaringiz o'n olti yildan beri (qo'lini bo'g'ziga olib borib) mana bu yerimga kelgan...";

"Doim shu – bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi..."³

Detallik xususiyati, ayniqsa, Sharof Boshbekovning "Falakning gardishi" kinoqissasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan bolaning beshikda topilishi, qizchaga Binafsha ismining g'ayrioddiy qo'yilishi, asar so'ngida qahramonning ko'chalarga suv sepuvchi sifatida ishga kirishida ham yuksak funksional ma'no borki, quyida ularga batafsil to'xtalib o'tilamiz.

"Beshikni qo'yishi hamon avvaliga yer tagidan bo'g'iq guldurak eshitildi, keyin o'z-o'zidan hamma narsa titray boshladi. Shavkat qo'rqqanidan daraxt tanasiga mahkam yopishib oldi. Kutilmaganda imoratlar birin-ketin qulab, borliqni chang-to'zon qopladi. Dov-daraxtlar notabiiy qiyshayib u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Hozirgina u o'g'rilikka tushmoqchi bo'lib turgan uy Shavkatning shundoqqina ko'z o'ngida qulab, yer bilan yakson bo'ldi. Ichkaridagilar: chaqaloqning ota-onasi, opa-akalari, Shavkatning ikkita sherigi ham qulab tushgan tom tagida qolib ketdi..."snoska

Birinchi navbatda, beshik bu yerda oddiy buyum emas, balki hayotning sof boshlanish nuqtasi sifatida gavdalanadi. Bola ko'chadan – ya'ni tasodifiy, beqaror, tartibsiz muhitdan emas, aynan beshikdan topilishi uning kelib chiqishi pok, tabiiy va muqaddas ekanini bildiradi. Qahramonimiz Shavkat bilan bog'lasak, uning hayotidagi ma'no, quvonch, ezgulikning tug'ilishi deyishimiz mumkin. Zero, shu hodisadan keyin uning hayotidagi ijobiy o'zgarishlar buning isbotidir.

"–"Qizchangizning ismi nima?" – deyapman, – takrorladi hamshira, – Men yozib qo'yishim kerak.

– A?.. "Binafsha kafesi"... – deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi Shavkat.

– Xo'p, Binafsha. Familiyasi?

– A?.. Kimni?..

³ "Temir xotin" / jiddiy komediya / "Abadiy barhayot asarlar" turkumi -T.: "Oltin Qalam", 2024.- 128 b.

– O‘zingizning bolangizmi axir? Shavkat o‘zini yo‘qotib, dovdiragancha sekin “yo‘q.” dedi, lekin tasdiq ma’nosida bosh irg‘adi.

– Bo‘pti-da, – dedi hamshira uning mujmalligidan g‘ashlanib. – Sizning familiyangiz nima?

– Jalilov...

Hamshira daftarga “Jalilova Binafsha” deb yozib qo‘ydi”⁴.

Binafsha chetdan qaraganda kimlar uchundir bahoriy gullarning bir turi xolos, lekin yozuvchi uchun u hech qachon “shunchaki” bo‘lmaydi, bo‘lolmaydi. Uni oddiy ko‘z bilan ko‘rish ijodkor uchun yot tushuncha. Binafsha obrazi bu yerda oddiy gul emas, balki bahorning ezgulik va yangilanish timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U qishning og‘irligi ortda qolib, tabiat va inson qalbida ilqlik uyg‘onayotgan pallani ifodalaydi. Binafsha bahor bilan birga keladigan yaxshilik va umidning nozik belgisidir. U ko‘zga darrov tashlanmaydi, lekin borligi seziladi – xuddi hayotda ham ba‘zan eng muhim yaxshiliklar jim, sezilmas tarzda kirib kelgani kabi. Shu jihatdan binafsha inson qalbidagi sof tuyg‘ular, mehr va samimiyatning ramziga aylanadi.

Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, Sharof Boshbekov asarlaridagi badiiy detal – bu muallifning qahramon ruhiga sanchgan jarrohlik pichog‘idir. U bu ashyolar orqali so‘z bilan ifodalash imkonsiz bo‘lgan ruhiy inqirozlarni, isyon va mudhish haqiqatlarni o‘quvchi shuuriga yorqin va og‘riqli tarzda ko‘chirib o‘tkaza oladi. Unda hamma narsa “katta voqea” orqali emas, balki mayda detallar orqali yuritiladi. Aslida shu mayda ko‘ringan unsurlar butun asarning ruhini, kayfiyatini va hatto g‘oyasini ko‘tarib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
- 2) T.Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. -T: “O‘zbekiston”. 2002. B 74. “Temir xotin” / jiddiy komediya / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi -T.: “Oltin Qalam”, 2024.- 128 b.
- 4) Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2004.
- 5) Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.

⁴ “Temir xotin” / jiddiy komediya / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi -T.: “Oltin Qalam”, 2024.- 128 b.